
Ilmga chanqoq o'quvchilarimizning yutuqlarini ulashishda davom etamiz!



SamDCHTI akademik litseyining iqtidorli, bilimga chanqoq va tirishqoq o'quvchilari erishayotgan yutuqlar haqida muntazam ravishda xabar berib bormoqdamiz.

Ana shunday o'quvchilarimizdan yana biri **Turdiyeva Aziza Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro sertifikat — IELTS imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, umumiy 7.0 (Listening - 8.0, reading - 7.0, speaking - 6.0, writing - 6.5) darajani qo'lga kiritdi.**

Turdiyeva Azizani ustozlari hamda o'zining betinim mehnatlari samarasi o'laroq erishgan yutug'i bilan samimiy qutlab, kelgusida bundan-da yuqori marralarni zabt etishini tilaymiz!

SamDCHTI akademik litseyi matbuot xizmati